

TO'QILMAGAN MATOLARNI KIIYIM KECHAK UCHUN ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Z.R.Kenjayeve

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 2-son kasb-hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi.

+998932102396 ziyodakenjayeve5@gmail.com

Annotatsiya: Noto'qima matolar yuqori sifati va kiyim kechak mahsulotlariga mosligi tufayli tayyor kiyim kechak jarayonida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Mamlakatimizda ham to'qilmagan matolarni ishlab chiqarishni kengaytirish, kiyim kechak mahsulotlari uchun to'qilmagan matolarni hususiyatlarini ko'proq o'rganib kiyim-kechak uchun qo'llashimiz lozim.

Kalit so'zlar: To'qilmagan mato, trikotaj, to'qilgan mato, mato, ketma-ketlik, kiyim-kechak, xususiyatlar.

Annotation: Non-woven fabrics are increasingly used in the finished garment process due to their high quality and compatibility with clothing products. We need to expand the production of non-woven fabrics in our country, to study the properties of non-woven fabrics for clothing and use them for clothing.

Keywords: Nonwovens, Knitwear, Knitted Fabrics, Fabrics, Sequences, Clothing, Feature.

Реферат: Высококачественные нетканые материалы и швейные изделия. готовая одежда из-за своей пригодности все больше и больше используется в швейном процессе. Расширение производства нетканых материалов и одежды в нашей стране узнав больше о характеристиках нетканых материалов для продуктов завтрашнего дня мы должны использовать его для одежды.

Ключевые слова: Нетканое полотно, трикотажное полотно, полотно, полотно, последовательность, одежда, свойства.

So'ngi kunlarda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash orqali mehnat unumdorligini oshirish, ulardagi mahsulot sifati va raqobatbardoshligini tashqi bozor talablariga javob beradigan darajaga yetkazib berish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bo'yicha izlanishlar olib borish dolzarb masala hisoblanadi. Yengil sanoat korxonalariga yuqori sifatli, jahon andozalariga javob bera oladigan mahsulot ishlab chiqarishda ilg'or texnologiya va texnikalarni joriy etish muhim omil hisoblanadi. Sanoatni rivojlanish, yangi ishlab chiqarish, korxonalarini tashkil topishi undagi barcha ustaxonalar texnika va texnologiyalarini o'rganishni taqozo etadi.

Hozirgi yillarda yangi to'qimachilik texnologiyasi – noto'qima materiallar ishlab chiqarish keng rivojlanmoqda. To'qilmagan materiallar deganda to'qimachilik tolalari, iplar sistemalari yoki siyrak gazlamalarni mexanik yoki fizik-kimyoviy usullarda birlashtirib ishlab chiqariladigan materiallar tushuniladi. Noto'qima mahsulotlar ishlab chiqarish to'qimachilik sanoatining nisbatan yangi sohasi hisoblanadi. Bu turdagi mahsulotlar arzonligi, sifatining o'ziga xosligi, ishlab chiqarish usullarining xilma xilligi bilan ajralib turadi. Matolarning ko'plab turlari texnika va tibbiyotda qimmatbaho hisoblangan, qisqa muddat foydalaniladigan gazlamalarni o'rnini bosmoqda. Ayrim turdagi noto'qima matolar

va buyumlar to'qimachilik sanoatining boshqa sohalarida tayyorlash imkoniyati bo'lmagan o'ziga xos tarkib va sifatga ega.[1]

Noto'qima matolar – bu issiqlik va bosim ostida yopishtiruvchi yoki termoplastik tolalar qo'llanishi bilan bog'langan parallel yotqizilgan, ko'ndalang yotqizilgan yoki tasodifiy yotqizilgan to'rlardan tayyorlangan mahsulotdir. Noto'qima matolar ishlab chiqarish uchun tolali to'rlarni bog'lashning bir necha asosiy usullari mavjud. Ulardan ba'zilari – na'matlash , yopishtiruvchi bog'lash , tikuv bilan bog'lash , termal bog'lash , igna bilan teshish , gidro-changlash va aylanish. Bular kiyimlarda qo'llanishi uchun ishlab chiqilgan.[2]

So'ngi statistik ma'lumotlarga ko'ra to'qilmagan matolarning atigi 1% kiyim-kechak uchun ishlatiladi. Noto'qima matolar ham murakkab tuzilishga egadir. Turli tolalar va qo'shimcha qiymatlar bilan ishlab chiqilgan to'qilmagan matolarga; paxta-poliestr aralashtirilgan noto'qima matolar, poliestr noto'qima mato, ipak noto'qima mato, jun to'qilmagan mato, Bardoshli poliesrt noto'qima mato kiradi.

To'qilmagan mato ishlab chiqarishning boshqa to'qimachilik matolar texnologiyasidan qator ustunliklari mavjud:

- past navli va kalta tolalar hamda latta-putta, eski qoldiqlardan qayta tiklangan tolalardan samarali foydalanish;
- uskunalarning yuqori unumdorligi;
- texnologik jarayonlar o'timlarining qisqaligi (kam o'timligi);
- uzluksiz ishlab chiqarish tizimini tashkil qilish imkoniyatlari;
- to'qimachilik mato va buyumlar turlarini ko'paytirishning mavjudligi.[3]

To'qilmagan matolar asosiy afzalliklari shundaki , noto'qima matolarning maxsulotning ihlab chiqash jarayoni ketma-ketligi oqimi sxemasi to'quv yoki trikotajga nisbatan kamroq bo'ladi. To'quv matolaria qaraganda noto'qima matolar ishlab chiqarish jarayoni besh barovar tezroq va 30% gacha arzon bo'ladi. To'qilmagan matolarning butun jarayomni bir tom ostida, bir chiziqda o'rnatilishi mumkun , yer va ortiqcha ishchi kuchiga talab nsbatan past bo'ladi. Bunday mahsulotlar ham yuqori namlik, havo o'tkazuvchanlikga, yuqori cho'ziluvchanlikka ,to'qilgan matolar singari yuvilish va mukammal draplanuvchanlikka ega deformatsiyalanishga bardoshlidir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi ehtiyojlarga ko'ra noto'qima matolar o'zgartiridi va kiyim sifatida foydalanishgacha yetib kelindi. Yengil sanoatni yanada rivojlantirish, kiyim tannarxini pasaytirish, texnologik jarayonlarni kamaytirib ish unumdorligini oshirish maqsadida kiyim - kechak tayyorlash uchun to'qilmagan matolarni ko'proq ishlab chiqarish kerak. Ulardan issiq kiyimlar, bosh kiyimlar, sport formalari, adyollar uchun ichki astarlar va yana ko'plab mahsulotlar tayyorlash mumkin. Bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishni takomillashtirish, tayyor kiyim-kechak tayyorlash va jahon bozoriga eksport qilish lozim. Ayniqsa ushbu noto'qima matolarni sport sohasida keng qo'llash kerak, chunki ushbu matolar to'qilgan matolarga nisbatan yengil va sovutuvchanlik hususiyatga ega. Bugungi kunda turli sanoat tarmoqlari tomondan kiyim-kechakning ushbu yangi tendensiyasini ishlab chiqishga urinishlar qilinmoqda, bu esa xalqlar turmush darajasini yuksaltirishga muhim qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayta tiklanadigan cho'zilish qobiliyatiga ega noto'qima matolar. www.FreePatentsOnline.com Nonwoven fabrics in apparel. 2008 yil .
2. Aadhar Mandot, Dr. Satyajeet B. Chaudhari. Noto'qima materiallar. Baroda maharaja sayajirao universiteti.